

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

STATISTIK JARAYONLARNI KOMPYUTER TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB O'RGANISH IMKONIYATLARI

Abdusalomova Istoraxon Ilxom qizi
KMO va STI ti 3 kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya:

Maqolada matematik statistika fanini kompyuter texnologiyasidan foydalanib o'rganish imkoniyatlari va uning muhim jihatlarini bayon qilingan. Ushbu jarayonni amalga oshirish bo'yicha qilingan amaliy ishlar sifatida yaratilgan elektron o'quv resurslar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kombinatorika, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika elementlari, gipergeometrik taqsimot, o'rinlashtirish, gruppalash, kompyuter texnologiyasi, statistik funktsiyalar, hisoblash algoritmi.

KIRISH

Hozirgi vaqtda kompyuter texnologiyasi xalq xo'jaligining barcha sohalariga chuqur kirib borgan. Shu bois, oliy o'quv yurtini tamomlagan mutaxassislarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bu kasbiy faoliyatida vujudga keladigan amaliy masalalarni yechish uchun kompyuterdan foydalana olish ko'nikmasi hisoblanadi. Ma'lumki, o'quv mazmunini o'rganishda kompyuter texnologiyasi va vositalariga tayanilganda fanlararo bog'liqlik ta'minlanishi bilan birga mustaqil ish ulushining o'sishi, bilishga bo'lgan qiziqish rivojlanishi hamda talabaning o'quv faoliyatini boshqarishga erishiladi.

Qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston - 2030"¹ dastur doirasida, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining barcha sohaları bo'yicha asosiy maqsadlar va omillar aniqlab olindi. Shu munosabat bilan hisob-tahliliy ishlar tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi amalga oshirilmoqda. Raqamli texnologiyalarga o'tish hisob-tahliliy ishlarning murakkabligi kamaytirishi va uning samaradorligini ta'minlashi kerak. Raqamlashtirish asosida, iqtisodiyotning xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida, samarali qarorlar qabul qilishda, boshqaruv tizimining asosiy elementlari bo'lgan buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni bilimli

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

muvoqlashtirishni ta'minlash imkonini beradi. Hozirda hisob-tahliliy ishlarni raqamlashtirishning turli samarali usullari mavjud.

Statistik ko'rsatkichlar ijtimoiy – iqtisodiy voqea – hodisalarning miqdoriy tomonlarini ularning sifat mohiyati bilan uzviy bog'liqlikda ifodalaydi. Voqea – hodisalarning miqdoriy tomoni deganda, ularning soni, hajmi, o'lchami, qiymati kabi miqdorlar tushuniladi. Sifat esa voqea – hodisalarning ichki qiyofasi, mohiyatidan kelib chiqadi. Statistika ko'rsatkichlar miqdoriy va sifat tomondan chambarchas bog'liqlikda o'rganiladi. Ijtimoiy – iqtisodiy voqea – hodisalar ma'lum makon va zamonda sodir bo'ladi.²

Shuning uchun ham statistik ko'rsatkichlar ularni makon (korxonalar, firma, birlashma, tuman va mamlakat miqyosida) va davrlar (kunlar, oylar, choraklar, yil va yillar) bo'yicha o'rganadi. Demak, statistik ko'rsatkichlar deb, ommaviy ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning ma'lum makon va zamondagi holatini, xarakterini, rivojlanishini, tarkibiy tuzilishini ifodalovchi me'yorlarga aytiladi. Ijtimoiy – iqtisodiy voqea – hodisalar holati va xarakati, ularni kuzatishdan (o'rganishdan) olingan miqdorlar (raqamlar) bilan ifodalanadi.³

Statistik ko'rsatkichlarning turlari hodisalar kabi ko'p bo'lganligi sababli, ularni biror belgilari bo'yicha tasniflash lozim bo'ladi. Statistik ko'rsatkichlar voqea – hodisalar to'plamini qamrab olishiga qarab, makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ko'rsatkichlarga guruhlanadi. Mikroiqtisodiy ko'rsatkichlar faoliyat yurutuvchi sub'ektlarda (firma, korxonalar ularning bo'limlari, birlashmalar, korporatsiyalar va shu kabilar) sodir bo'layotgan jarayonlarni ifodalaydi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mamlakat yoki uning hududlaridagi ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar holati va xarakterini ifodalaydi. Angren ko'mir konida qazilgan ko'mir, biror fermer xo'jaligida terilgan paxta, biror korxonada ishlayotgan xodimlar soni va shu kabilar mikroiqtisodiy ko'rsatkichlardir. Mamlakat miqyosida qazib olingan ko'mir, viloyat yoki mamlakat miqyosida tayyorlangan paxta, ishlayotgan xodimlar soni va shu kabilar makroiqtisodiy ko'rsatkichlardir. Statistik ko'rsatkichlar miqdori raqamlar bilan ifodalanadi.

² Xudayberdiy U.X., Xoliqulov A.N., Babanazarova S.A. Statistika. O'quv uslubiy qo'llanma. (2-qism) Samarqand, SamISI, 2014.

³ Wisher R.A., Khan B.H. Learning on Demand ADL and the Future of elearning Advanced Distributed Learning, 2010.-P 339-340.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Miqdorlar mohiyatiga ko‘ra mutloq, nisbiy va o‘rtacha miqdorlarga bo‘lishi mumkin. Ularning mohiyati keyingi savol va mavzularda yoritiladi. Statistik ko‘rsatkichlar olish usuliga qarab birlamchi va ikkilamchi (hosilaviy) ko‘rsatkichlarga guruhlanadi. Birlamchi ko‘rsatkichlar hodisa va jarayonlarni kuzatishdan olingan, hamda ular asosida jamg‘arilgan ko‘rsatkichlardir. Ikkilamchi (hosilaviy) ko‘rsatkichlar birlamchi ko‘rsatkichlar asosida matematik amallarni qo‘llab topilgan, hosil bo‘lgan ko‘rsatkichlardir. Mehnat unumdorligi, hosildorlik, korxonalar (firma) rentabelligi kabi ko‘rsatkichlar ikkilamchi (hosilaviy) ko‘rsatkichlarga misol bo‘ladi.⁴

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu takliflar ishlab chiqarilgan (ko‘rsatiladigan) xizmatlar bilan shug‘ullanadigan korxonalar va tashkilotlarning hisobotlarni o‘z vaqtida, ishonchli yuborilishi uchun tushunmovchiliklar kelitrib chiqarmasdan statistik hisobotlarni junatilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika hisobotlarni elektirion shakilda qabul qilishda ham statistika organlarining amaliy faoliyatida foydalanish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son.
2. Xudayberdiev U.X., Xoliqulov A.N., Babanazarova S.A. Statistika. O‘quv uslubiy qo‘llanma. (2-qism) Samarqand, SamISI, 2014.
3. Wisher R.A., Khan B.H. Learning on Demand ADL and the Future of elearning Advanced Distributed Learning, 2010.-P 339-340.
4. Tokhirov A.I. “USING THE GRAPHICAL EDITOR "КОМПАС 3D" in teaching computer engineering graphics” // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 7(88). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12076> DOI: 10.32743/UniTech.2021.78.8-3.12076.
5. www.stat.uz

⁴ Tokhirov A.I. “USING THE GRAPHICAL EDITOR "КОМПАС 3D" in teaching computer engineering graphics” // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2021. 7(88). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12076> DOI: 10.32743/UniTech.2021.78.8-3.12076



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

6. www.aim.uz
7. www.norma.uz
8. www.lex.uz



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES